

**Neft mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish
SHARTNOMASI №4**

“17” yanvar 2022 yil

Nurobod tumani

“Marokand neft bazasi” MCHJ, Nurobod filiali keyingi o'rinlarda «Mahsulot yetkazib beruvchi» deb yuritiluvchi nomidan NIZOM asosida faoliyat ko'rsatuvchi boshlig'i A.Hasanov bir tomondan va Kattaqo'rg'on tuman iqtisodiy bo'limi keyingi o'rinlarda “Iste'molchi” deb yuritiluvchi nomidan J.Kuldoshev nizom asosida faoliyat yurituvchi ikkinchi tarafdin ushbu shartnomani quyidagilar hakida tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. “Yetkazib beruvchi” “Iste'molchi”ning buyurtmasi asosida tegishli ruzum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish. “Iste'molchi” esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining turlari, ularning miqdori, narxi shuningdek, yetkazib berish muddatlari quyidagi spetsifikatsiya jadvalida keltiriladi.

1.3.

Neft mahsulotining nomi, rusumi	Dav. STTSH	O'lehov birligi	Narxi	Yillik miqdori	Summasi	SHu jumladan choraklar bo'yicha			
						I	II	III	IV
Diz yonilg'isi	O'zDst 1134:2007	kg	11251,57	2666	29996685,62	2666			

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan “Iste'molchi” buyurtmalarini shakllantirishda, “Yetkazib beruvchi” esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiy summasi **29996685,62 (yigirma to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson olti ming olti yuzi sakson besh sum 62 tiyn)** so'mni tashkil qiladi.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2020 yil 4 may kuni o'tkazilgan №27-sonli yig'ilish bayonining 23-bandiga asosan Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlarini «Yetkazib beruvchi» tomonidan Byudjet tashkilotlari, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxta-to'qimachilik klasterlari, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ, “Toshshaxartransizmat” AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat korxonalariga dizel yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizel yoqilg'isi) o'tgan haftadagi birja savdolari natijalariga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlarida shakllanadi.

2.3. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlarini «Yetkazib beruvchi» tomonidan boshqa iste'molchilarga barcha neft mahsulotlari, netini qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltirish xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidan shakllanadi.

2.4. “Yetkazib beruvchi” “Iste'molchi”ning buyurtmasi olingan zahoti Yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. “Iste'molchi” mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 to'z oldindan to'lovlarni 5 (besh) kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarini qo'llashi mumkin.

2.5. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Yetkazib beruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari “Yetkazib beruvchi”ning ombondan yoki unga qarashli filiallardan “Iste'molchi”ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirilganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari “Iste'molchi”ga “Yetkazib beruvchi”ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft mahsulotlarini shuningdek “Iste'molchi” tomonidan barcha yong'in va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari ombonga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Yetkazib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotransport sistemalar (Iste'molchi)ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) “Iste'molchi”ning talabiga binoan “Yetkazib beruvchi”ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida “Yetkazib beruvchi” tomonidan “Iste'molchi”ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor bo'yicha qabul qilish “Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollari miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida”gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa “Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollari sifati jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida”gi P-7-sonli yuriqnomalar hamda boshqa me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. "Iste'molchi" ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar "Yetkazib beruvchi" ning omborida yoki unga qo'shishi filiallarda, ayrim hollarda "Iste'molchi" ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni "Iste'molchi" tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik huquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon etish xavfi "Yetkazib beruvchi" ombori yoki AYOQSH xududidan chiqqan vaqtdan boshlab "Iste'molchi" ga o'tadi.

5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. "Yetkazib beruvchi" "Iste'molchi" ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan hujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda "Iste'molchi" ularning sifatini, shuningdek sifati pasportini talab qilishi huquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida" gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

6.2. "Yetkazib beruvchi" neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtda etkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0.1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. "Yetkazib beruvchi" neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda "Iste'molchi" ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. "Iste'molchi" belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun "Yetkazib beruvchi" ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish xuquqiga ega.

6.5. "Iste'molchi" o'zining xududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. "Iste'molchi" Yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (havqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan xar qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'ri bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar orqali hal etiladi.

8.2. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng hukukiy kuchga ega.

8.4. Shartnomatomonlar o'rtasida imzolangan va agar "Iste'molchi" byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabriga qacha amal qiladi.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«Mahsulot Yetkazib beruvchi»

"Iste'molchi"

«Maroqand neft bazasi» MCHJ

Nurobod filiali

Nurobod tumani, Nurbo'loq shahri

STIR: 202041686

x/r: 22604 000 0 0044093170J

MFO 00432 «Uzsan o'atkuрилишбанк» TB

Yashnubod filiali

 A.M. Hasanov

LO:

Kattaqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi

Kattaqo'rg'on tumani, Kadan MFY

STIR: 207264001

X/r: 1000 1086 0182 1570 4240 2170 002

Banki: Markaziy bank Toshkent sh

x/r: 23402000300100001010

Kattaqo'rg'on tuman G'aznachilik bo'limmasi


MFO 00014

OKED 01613

Raxbari:  J. Kuldoshev

NMHS bo'limi

E. Xakimov





Huquqshunosning xulosasi: Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 353 va 354 moddalari hamda 437-456-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida» gi Qonunning 11 bo'lim 31, 32, 34-moddalari talablariga javob beradi.



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI ADIY VA AZIYI
SAMIYAT VA HUKUMAT ADIY VA BOSHIDIGI
KATTAQO'RG'ON TUMANI HUKUMATI

141408, Kattaqo'rg'on tumani, Kadan mahallasi, Mustaqillik ko'chasi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA
№ BQ24843344**

1. Loyihaning turi.
Shartnoma.

2. Loyihaning nomi.

Kattaqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi va "Marokand neft bazasi" MCHJ Nurobod filiali o'rtasida Neft mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish to'g'risidagi № 4-sonli shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Shartnoma loyihasi, Kattaqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy xulosa berish uchun 2022 yil 17 yanvar kuni kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz boshlig'i



S.Mamarajabov

2022 yil 17 yanvar